



## ODIL YOQUBOVNING "OQ QUSHLAR OPPOQ QUSHLAR ASARIDA QO'LLANILGAN BADIY SO'ZLAR"

Zarpullayeva Mohira

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining 304-guruh talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10408726>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-December 2023 yil

Ma'qullandi: 15- December 2023 yil

Nashr qilindi: 20- December 2023 yil

### KEY WORDS

Hujra, xufton, may, ma'no  
ko'chishlar, maqollar

### ABSTRACT

*Atoqli o'zbek yozuvchisi. O'zining haqqarvar, siyosatga, badiiylikka boy asarlari bilan ko'plab muxlislarini yaratgan adib Odil Yoqubovning deyarli barcha asarlarida oddiy xalq va yuqori lavozim egalari, adolat va adolatsizlik, sadqat va xiyonat kabi bir biriga zid keluvchi tomonlarning oxir-oqibat haqiqat yo'liga kelib bog'lanishi asosiy mavzu bo'lib kuylanaveradi. Istedodli yozuvchi asarni yozish davomida, kitobxonga yanada aniqroq, yanada tasavvurlariga jonlilik baxsh etish, voqealar rivojini kuchli his-hayajon bilan, sabrsizlik bilan o'qib kuzatib borishi uchun ajoyib usullardan foydalanadi. Jumladan uning "Oq qushlar oppoq qushlar" asari ham yuqorida aytib o'tilgan sifatlarga boyligi va ayniqsa unda keng foydalanilgan badiiy bo'yoqlar, omonim, sinonimlar va badiiy asarlarga xos jilolanuvchi so'zlar, ijodiy rang-tasvir, ma'no ko'chishining ajoyib turlari, metafora, metanomiya, snekdoxa, vazifadoshlik, maqol va matallar keng o'rin olgan. Bu esa asar mazmuniga o'zgacha ijobiy ta'sir o'tkazib, fikr- mulohazalarni, aynan ochib berilmoqchi bo'lgan maqsadni yanada oydinlashtiradi, kitobxon xulosasini teranlashtiradi.*

Masalan asarda keltirilgan ba'zi badiiy so'zlarning qo'llanish nuqtalariga e'tibor qiling. "Ko'kda, qoq peshonada, xuddi ulkan oq qovunning bir pallasiday, oppoq oy olamni allaqanday osuda, mayin, kumushrang yog'duga g'arq qilib yarqirab turibdi.

Bu yerda ma'no ko'chishining belgi xususiyatiga ko'ra metafora usulidan foydalanilgan. Natijada o'yning ulkan oq qovunning bir pallasiga o'xshatilyapti".

Xuddi shu tarzidagi yana bir jumla: „Shovvoz o'z quloqlariga ishonmay chang kipriklarini pirpiratib, ro'parasida qoyaday qaqqayib turgan yosh direktorga qaradi." Ushbu gapda ham metafora usulidan foydalanilgan ya'ni direktorning tirishi qoyaga o'xshatilyapti.

Voqelar tasvirining bo'yoqdorligini yanada kuchaytirib bergan quyidagi jumlagam ham e'tibor qilaylik:

„Shovvoz yuragini tilka-pora qilgan bu noxush o'ylardan miyasi g'ovlab, nihoyat o'rnidan tirdi." Endi jumladagi ma'no ko'chishlarni

sharxlaymiz, bilasizki o'ylar yurakni tilka-pora qilolmaydi, ya'ni u harakat soadir etuvchi jonli predmet emas, yoki o'tkir qurol vazifasini bajarmaydi va aynan shuning uchun ham ma'no ko'chish holatini sodir etmoqda. Asar so'ngida aytilgan:

„Muzaffar Farmonlar tuzoqqa ilinsa ham Po'lat papkalar qolgan ekan... Haqiqat tantana qilolmaydi, bolam." Bu yerda esa sinekdoxa orqali ma'no ko'chish yuz beryapti. Ya'ni Po'lat papkalar so'zi orqali butun bir unga o'xshash qallob kishilarni tilga olyapti. Qolaversa asardan yana maqol va matallar, iboralar o'rin olganini ta'kidlash mumkin. "O'g'ling axmoq bo'lsa ham, kelining dono bo'lsin".

Yozuvchi asarni yozish davomida tarixiy, arxaik so'zlardan ham unumli foydalanadi. Masalan: "Oysuluvning o'limidan keyin uy

ham nazarida shamsiz hujraday qorong'i, uni chiroq

tugul hatto oftob ham yorita olmas edi" „Hujra" so'zini qo'llash orqali asar qahramonining og'ir tushkunlikdagi ruhiy holatini ochib beradi. Bunday so'zlarni o'zbek romanchiligining asoschisi A. Qodiriyning „Mehrobdan chayon" asarida ham uchrashini aytib o'tish mumkin.

"Ra'no shu so'zni aytib, orqasiga qayta berdi, eshikni boyagicha yopib, hujradan yiroqlashdi".

A. Qodiriy, "Mehrobdan chayon". Yoki "Madrassa, qorixona va masjidida shogirdlar, domullalar yashashi uchun ajratilgan kichik xona(lar). Bu hujralarning ko'pchiligi bir eshikli va oldi ravoqli bo'lib, odam ham, havo ham, ziyo ham o'sha bir eshikdan kirardi. S. Ayniy, "Esdaliklar" Galdagi jumlar ham bundan mustasno emas: „Oftob g'arbga yonboshlagan, ammo hamon kun iliq, osmon musaffo edi. Qarovsiz qolgan ulkan bog' ship-shiydam bo'lib, huvillab yotardi. Buni ko'rib,

Shovvozning dili battar xufton bo'ldi." "Xufton" so'zining g'ashlik, homushlik tushunchalari o'rnida qo'llanishi ham asar mazmunini yanada boyitgan. Adib asarni yozishda davom etar ekan, voqealarni jumlar orqali tasvirlashda badiiy so'zlar unumdorligiga katta e'tibor qaratadi va mumtoz adabiyotimizda keng qo'llanadigan so'zlarga murojaat qiladi ya'ni: "Sherzod miq etmay, noz-ne'mat to'la stol tomon o'tib, to'rt qirralik nozik shisha-dan bir piyola may quydi, biroq ichishdan oldin yana Mardon Zokirov bilan Halim Salimovichga o'girilib" mumtoz adabiyotimizda ilohiy ishq timsoli bo'lgan "May" so'zining tilga olinishini ko'ramiz va bu ham yozuvchi mahoratiga borib taqaladi. Umuman olganda asarning kitobxon bilan do'st qiladigan, kitobxonni o'ziga maftun etib, o'ziga oshno qilib qo'yadigan tomoni badiiy so'z hisoblanadi. Ijodkor badiiy so'z boyligini qanchalik mahorat bilan ishga solsa asar shunchalik teran, mazmunan pishiq, puxta bo'lib chiqadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Mehrobdan chayon" A.Qodiriy
2. "Esdaliklar" S.Ayniy.
3. "Oq qushlar oppoq qushlar" O.Yoqubov